

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI**

**BURXANOVA NILUFAR JALOLITDINOVNA**

**XITUZAN HOSILALARINING ELEKTRON  
XARAKTERISTIKALARI VA REAKSION QOBILIYATLARI**

**01.04.06-Polimerlar fizikasi**

**FIZIKA — MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA  
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical – mathematical sciences**

**Burxanova Nilufar Jalolitdinovna**

Xitozan hosilalarining elektron xarakteristikalari  
va reaksiya qobiliyatlari.....3

**Бурханова Нилуфар Жалолитдиновна**

Электронные характеристики и реакционные  
способности производных хитозана .....21

**Burkhanova Nilufar Jalolitdinovna**

Electronic characteristics and reactivity of  
chitosan derivatives .....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....43

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI**

**BURXANOVA NILUFAR JALOLITDINOVNA**

**XITOZAN HOSILALARINING ELEKTRON  
XARAKTERISTIKALARI VA REAKSION QOBILIYATLARI**

**01.04.06-Polimerlar fizikasi**

**FIZIKA — MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA  
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM891 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Nurgaliyev Inar Nakipovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:** **Potyomkin Igor Ivanovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Abdurahmonov Umarbek**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat «\_\_\_» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7<sup>b</sup>. Tel: (+99871) 241-85-94; faks: (+99871) 241-26-61, e-mail: polymer@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7<sup>b</sup>. Tel: (+99871) 241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.Sh. Rashidova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, k.f.d., professor, akademik

**M.M. Usmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, k.f.n.,  
yetakchi ilmiy xodim

**S.S. Negmatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor, akademik

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda makromolekulalar tuzilishi, ularning nanozarrachalari va ular ishtirokidagi kimyoviy reaksiyalarning xossalarini o‘rganishda molekulyar modellashtirishdan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Polisaxaridlarning reaksiyon qobiliyatlarini tadqiq qilishda chegara orbitalarining qo‘zg‘alish nazariyasi fundamental asoslarini qo‘llash va takomillashtirish, kimyoviy va biologik faollikda o‘zaro ta‘sir jarayonlarini ifodalash uchun elektron xarakteristikalar hamda strukturaviy omillar ta‘sirini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida sintetik va tabiiy polimer tizimlarning elektron xarakteristikalarini va reaksiyon qobiliyatlarini oldindan belgilab berish va tahlil qilishda nazariy usullarni qo‘llash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda turli xil sohalarda, xususan, tibbiyot va qishloq xo‘jaligida qo‘llaniluvchi polimer preparatlar olishda yangi tabiiy polisaxaridlar va ularning hosilalari asosida olingan polimer tizimlarni o‘rganish, xossalarini bashorat qilish, jumladan xitozanning modellarini yaratishda kompyuter kimyosi usullari imkoniyatlarini kengaytirish kabi ilmiy izlanishlarni olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda tabiiy polimerlar asosida yaratilgan nanostrukturaviy tizimlarni kompyuter modellashtirish usullarida tahlil va tadqiqot natijalarini asoslash bo‘yicha olib borilgan nazariy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> hamda 2030-yilgacha bo‘lgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida<sup>2</sup> «...ma‘lumotlarni tahlil qilish hamda raqamli modellashtirish...», mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish hamda fundamental tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq qilish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun turli sohalarda qo‘llash imkonini beruvchi polimer tizimlar tuzilishining umumiy nazariyasini yaratish va polisaxaridlarni, jumladan, xitozan va uning hosilalarini o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilish tabiatini ta‘riflash, turli xil funksional guruhlarga ega polimerlarning elektron xarakteristikalarini, polisaxaridlarning biologik faolligini namoyon qiluvchi modellarning reaksiyon qobiliyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy- amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni.

me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muommoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida xitozan hosilalarini kompyuter modellashtirish va nazariy ma'lumotlarni eksperimental tadqiqotlarda tadqiq etishda xorijiy olimlar tomonidan faol izlanishlar olib borilmoqda. J. Zhao, Sh. Chen, J. Poater, M. Swart, J.M. Carnerero, A.G. Holzer, Sh.C. Glotzer, T.E. Gartner, A. Jayarama, W. Paul, A.R. Xoxlov, A.S. Kazachenko, I.I.Potemkin, J.H. Pacheco-Sánchez, N.L.D. Armendariz, M.N. Melo, F.M. Pereira, V.H. Carvalho-Silva, R.P. Gangadharan, S.S. Krishnan, B.Ch. Deka, D. Parthasarathi, M.S. Padusha, T. Pirawattana, T. Srinophakun, D. Villemin, M. Ibrahim, M. El-Sayed, A. Omar va boshqa olimlar kimyoviy faol funksional guruhlarni tavsiflash uchun reaksiyon qobiliyat deskriptorlarini hisoblashda olib borilgan izlanishlarda o'z hissasini qo'shishgan.

Respublikamizda mazkur yo'nalish rivojiga akademik Rashidova S.Sh. va uning shogirtlari, professorlar B.L. Oksengendler va N.N. Turayeva, fizika-matematika fanlar doktorlari B. Askarov va I.N. Nurgaliyev xitozan hosilalari va ular asosidagi nanotuzilmalarni tuzilishi va xususiyatlari haqida nazariy natijalari bilan o'z hissalarini qo'shishgan.

Ushbu izlanishlarga qadar molekulyar tizimlarning modellarini yaratish, ularning reaksiyon qobiliyatlarini o'rganish hamda polisaxaridlar va ularning hosilalari bilan bog'liq xususiyatlarni bashorat qilish muammolari yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu yo'nalishda kvant mexanikasini qo'llashning taxminiy amaliy usullarini, murakkab atom tizimlarining asosiy xususiyatlarini juda murakkab hisob-kitoblarni jalb qilmasdan tushuntira oladigan usullarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining OT-F7-01 "Nanopolimer tizimlar, maxsus xossalarga ega bo'lgan materiallarni yaratishda elektron xossalarni va kinetik jihatlarni o'rni" (2016-2020 yy), FZ-4721055613 "Yuqori molekulyar tizimlar asosida nanotolalarni shakllanishining fundamental jihatlari" (2022-2026 yy) loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** xitozanning turli birikmalar bilan o'zaro ta'sirini nazariy jihatdan o'rganish, uning hosilalari hosil bo'lishini, ularning reaksiyon qobiliyatlarini tavsiflash, shuningdek, eksperimental natijalarini nazariy jihatdan tasdiqlash.

**Tadqiqot vazifalari:**

xitozanning sulfatlovchi moddalar bilan reaksiyasini hamda reaksiya mahsuloti xitozanning sulfatlangan hosilalarini reaksiyon qobiliyatlarini o'rganish;

xitozan askorbatning nanozarrachalarini tuzilishini tavsiflash uchun xitozanni askorbin kislotasi hamda tripolifosfat bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rganish;

polimolekulyar komplekslarni hosil bo'lishida *Bombyx mori* ipak qurti g'umbagidan ajralib chiqqan oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalar bilan xitozanni o'zaro ta'sirlashuvini o'rganish;

xitozanni kumush nanozarrachalari bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rganish, bimetal klasterlar (Ag/Cu) ning tuzilishi va elektron xarakteristikalarini o'rganish;

xitozan-karboksimetilsellyuloza polielektrolit komplekslarini hosil qilishda xitozanni dezatsetillash darajasini ta'sirini o'rganish;

xitozan/gidroksiapatit nanokompozitini olishda xitozan bilan gidroksiapatitni o'zaro ta'sirini o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** tabiiy polimerlar – xitozan, sulfat xitozan, xitozan askorbati, *Bombyx mori* oqsili bilan xitozanning polimolekulyar komplekslari, bimetal klasterlar, xitozan-karbokimetilsellyuloza kompleksi, xitozan-gidroksiapatit kompoziti.

**Tadqiqotning predmeti** xitozan hosilalari asosidagi polimer tizimlarining turli xarakteristikalarini hisoblash, geometrik va konfiguratsion tuzilishini va ularning reaksiyon qobiliyat bilan bog'liqligini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Zichlik funksionali nazariyasi asosida Becke-3-Lee-Yang-Parr (B3LYP) funksionali 6-31G(d,p), B3LYP/6-31++G(d,p), 3-21G, 3-21G\*\*, 6-31G\*\* bazaviy to'plamlaridan foydalangan holda DFT darajasida Gaussian 09, Gaussview 5.0.9 dasturi doirasida modellashtirish, hamda DS BIOVIA Materials Studio 2017 (17.1.0.48) ta'minot dasturining PCFF kuch maydonidan foydalangan holda molekulyar dinamik hisoblashlar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor chegaraviy molekulyar orbitalarning hisoblangan raqamli qiymatlarini taqqoslanganda sulfat xitozan hosilalarini olishda xlorosulfon kislotasi xitozan bilan o'zaro ta'sirlashishda katta potensialga ega organik kislotalardan biri deb aniqlangan;

ilk bor xitozan-askorbat kislotasi-tripolifosfat o'zaro ta'sirlashuvini zichlik funksionali nazariyasi asosida o'rganilganda xitozan askorbat nanozarrachalarining modeli yaratilgan;

ilk bor zichlik funksionali nazariyasi asosida *Bombyx mori* oqsili tarkibiga kiruvchi aminokislotalarning xitozan bilan o'zaro ta'sir modeli yaratildi, kompleks barqarorligi va reaksiyon qobiliyat ko'rsatkichlari qiymatlari hisoblandi;

$Cu_3Ag_m$  ( $3 \leq m \leq 20$ ) tarkibining bimetal klasterlarini elektron xarakteristikalari hisoblangan, Ag atomi Cu atomi bilan interfeys hosil qilishda subklasterlarning segregatsiyalangan namunasini namoyon qila olishi, elektron tuzulishi bo'yicha eng maqbul klasterlar  $Cu_3Ag_{10}$ ,  $Cu_3Ag_{15}$  va  $Cu_3Ag_{20}$  ekanligi ko'rsatilgan;

karbokimetilsellyuloza (KMS) ning  $-NH_3^+$  va  $-COO^-$  guruhlar orasida o'zaro elektrostatik ta'sirlashish hisobiga xitozan KMS ning polielektrolit komplekslari hosil bo'lishi, hamda bu jarayonga pH aralashma va dezatsetillash darajasi ta'siri ko'rsatilgan;

ilk bor zichlik funksionali nazariyasi asosida xitozan pentomeri bilan gidroksiapatitning strukturaviy qismlari bilan o'zaro ta'sirlashuv modeli yaratildi, adsorbsiya energiyasi yuqori kattalikka ega, muvozanat masofasi esa 1,073 Å ni

tashkil etadi. Olingan natijalarning taqqoslanishi elektronni ko'chirish va ionlashish bo'lmaganda umumiy dipol momenti oshishini ko'rsatdi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:** Tadqiqot davomida olingan natijalar xitozanning yangi hosilalarini sintez qilish, ularning xususiyatlarini bashorat qilish va sintez jarayonida komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rnatish uchun ishlatilishi mumkin. Dissertatsiya ishida xitozan hosilalarining reaksiyon qobiliyati va xarakteristikalarini haqidagi ma'lumotlar ma'lumotnoma sifatida qo'llash imkonini beradi.

Xitozan va sulfatlovchi agentlarning reaksiyon qobiliyatini o'rganish natijalari xitozanning sulfat hosilalarini olishda xlorosulfon kislotasi eng maqbul sulfatlovchi qobiliyatini ko'rsatdi. Xitozan askorbat nanozarrachalari modeli tarkibi va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar boshqa nanozarrachalarning hisoblash usullari yordamida tuzilishi va reaksiyon qobiliyatini aniqlashda, shuningdek, xitozan hosilalarining hali olinmagan nanozarrachalarini bashorat qilishda qo'llash mumkin.

Ushbu ishda olingan xitozanning Bombyx mori oqsili tarkibiga kiruvchi aminokislotalar bilan o'zaro ta'sirlashish modellari komplekslarning barqarorligini mavjudligini, turli biopolimerlarning o'zaro ta'sir mexanizmini o'rganish hamda funktsional guruhlarining reaksiyon qobiliyatini ko'rsatadi.

Bimetal klasterlarni o'rganish natijasida ma'lumotlar eng barqaror strukturalarni, shuningdek, ularni xitozan bilan barqarorlashtirish mexanizmini ko'rsatdi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Ilmiy ishda natijalar va hulosalarni asosligi molekulyar dinamika, kvant mexanikasi usullaridan foydalanilganligi bilan hamda yuqori natijaviy raqamli usullar va algoritmlar, kuzatishlar natijasidagi qo'lga kiritilgan eksperimental ma'lumotlar va boshqa olimlarning natijalari bilan olingan nazariy ma'lumotlarni mutanosibligini taqqoslash olib borilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada olingan natijalar yordamida xitozan hosilalarining atom sathida elektron va strukturaviy xossalarni hamda reaksiyon qobiliyatlarini bashorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari yaratilgan xitozan hosilalari ta'sirlashuv modellari, xitozan Karboksimetilsellyulozaning polielektrolit komplekslarini hosil bo'lishida deatsetillash darajasining ta'siri, Bombyx mori oqsili tarkibiga kiruvchi aminokislotalarning xitozan bilan o'zaro ta'sirlashuv modeli shu kabi tizimlarni o'rganishda fundamental asos sifatida qo'llash imkoniyatini beradi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati polimer tizimlarda jarayonlarini anglashda katta ahamiyatga ega. Xitozan hosilalarining reaksiyon qobiliyatlarini va biologik faolligini o'rganishda olingan natijalar mavjud nazariy va eksperimental ma'lumotlarni to'ldirishda xizmat qiladi. Elektron xarakteristikalarini ta'rifi bilan keltirilgan barcha modellar ilk marta yaratilgan bo'lib, keyinchalik boshqa tadqiqotchilar nafaqat ta'riflangan balki boshqa shu kabi tizimlarning tuzilishi va reaksiyon qobiliyatlari bashoratlarida hamda hisoblashlarida foydalanish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Xitozan hosilalarining elektron xarakteristikalarini va reaksiyon qobiliyatlarini" bo'yicha olingan natijalar asosida:

yaratilgan nazariy modellar, xususan xitozanning sulfatlovchi agentlar (xlorsulfon va sulfamin kislotalari) bilan reaksiyasini o'rganish hamda sulfatlangan xitozan hosilasi tadqiqotlari, askorbat xitozan nanozarrachalari modelini o'rnatish natijalari, Cu/Ag bimetall klasterlarining barqarorligi va shakllanishi tadqiqot natijalari BAA Sharja Amerika universitetining yagona tadqiqot markazi, FRG # FRG23-C-S56 tadqiqot loyihasida (BAA, American University of Sharjah 2023-yil 3-oktabrdagi xati) foydalanildi. Natijada tajribalarni o'zgartirish va xitozanning turli birikmalar bilan o'zaro ta'sirining yangi qoidalarini o'rnatish imkonini berdi;

kvant- nazariy hisoblashlar, hisoblangan xarakteristikalar va XZ monomeri bilan xlorsulfon kislotasining ta'sirlashuvi optimizatsiyalangan modeli, XZ ning sulfat hosilasi uchun reaksiyon qobiliyati hisoblangan deskriptorlaridan Fudan Universitetining loyihasi doirasida foydalanilgan (Xitoy, Fudan Universitetining 2023-yil 13-noyabrdagi xati). Natijada xitozanning O-sulfat hosilasining reaksiyon qobiliyatlarini tushuntirish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya bo'yicha olingan asosiy ilmiy natijalari 15 ta xalqaro va 19 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 41 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 tasi Scopus bazasiga kiruvchi jumallarda, 4 tasi respublika va 1 ta xorijiy jumallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi asoslangan. Mavzu bo'yicha chet eldagi ilmiy tadqiqotlar haqida qisqacha sharh va muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy tadqiqotlarning maqsad, vazifalari, obykti va predmeti, natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining qo'llanilishi, dissertatsiya tuzilishi va nashr qilingan ilmiy ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Reaksiyon qobiliyatning deskriptorlari**" nomli birinchi bobida bog'lanishlarning turli xarakteristikalarini hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan hisoblash usullardan biri zichlik funksionali nazariyasi usuli tavsiflangan, bog'lanishlarning reaksiyon qobiliyatlari tavsifini beruvchi raqamli qiymatlarni va elektron tuzilishlar asosida hisoblanuvchi deskriptorlarning adabiyotlar tahlil qilingan. Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot vazifalari asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Hisoblash usullari va hisob kitob metodikasi**" nomli ikkinchi bobida dissertatsiyada foydalanilgan hisoblash usullari haqida

ma'lumotlar keltilgan. Dissertatsiya ishi Becke-3-Lee-Yang-Parr (B3LYP) funksionalidan foydalangan holda 6-31G(d,p), bazaviy to'plami bilan B3LYP/6-31++G(d,p), 3-21G, 3-21G\*\*, 6-31G\*\* DFT darajasida nazariy hisoblashlar, shuningdek molekulyar dinamika hisoblashlari DS BIOVIA Materials Studio 2017 (17.1.0.48) ta'minot dasturining PCFF kuch maydonidan foydalangan holda nazariy hisoblashlar keltirilgan. Tadqiqot olib borilayotgan sistemalarning termodinamik xarakteristikalarini va reaksiyon qobiliyat deskriptorlarini hisoblash uchun formulalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Natijalar va ularning tahlili**” nomli uchinchi bobi xitozan hosilalarini reaksiyon qobiliyatlarini tadbiq etish uchun chegaraviy orbita g'alayonlanishi nazariyasi usulining fundamental asoslarini qo'llash va takomillashtirish, elektron xarakteristikalarini kvant-kimyoviy hisoblashlardan tashkil topgan natijalar va ularning tahlilidan iborat.

Xitozanning sulfatlanishi tarkibida bir nechta reaksiyaga qobiliyatli guruhlarining mavjudligi aralashgan hosilalarni olish imkonini beradi. Sulfatlovchi reagent va reaksiya sharoitiga bog'liq ravishda ularning munosabati turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni N-sulfat XZ (N-SXZ), O-sulfat xitozan (O-SXZ), N,O-sulfat xitozan (N, O-SXZ) va -O,2-N,6-O- sulfat xitozan (O2-N6-O-SXZ) olishda. Mazkur ishning maqsadi sulfat xitozan hosil bo'lishi reaksiyasi va mahsulot reaksiyasining nazariy izlanishlaridan iborat bo'lgan. Ilmiy ishda GAUSSIAN09 dastur paketi DFT darajasining B3LYP/6-31++G(d,p) potensialidan foydalangan holda kvant-nazariy izlanishlar olib borilgan bo'lib, XZ monomerining xlorosulfon kislotasi (XSK) va sulfomin kislotasi (SK) bilan o'zaro ta'silashishi modeli optimizatsiya qilingan va xarakteristikalarini hisoblangan. 1-jadvalda sulfat hosilalari uchun reaksiyon qobiliyat deskriptorlarining qiymatlari hisob kitoblari keltirilgan.

### 1-jadval.

SXZ uchun B3LYP/6-31++G(d,p) bazaviy to'plamdan foydalanib hisoblangan elektron parametrlar.

Parametr (eV)	Qiymatlar			
	N-SXZ	O-SXZ	N-O-SXZ	O-N-O-SXZ
E <sub>YBMO</sub>	-10,32	-9,65	-11,64	-11,53
E <sub>QEMO</sub>	-0,52	0,014	-0,11	-0,81
Taqiqlangan zona kengligi (ΔE)	10,84	9,66	11,75	12,34
Kimyoviy potensial (μ)	-5,42	-4,82	-5,87	-6,17
Kimyoviy qattiqligi (η)	4,9	4,83	5,76	5,36
Yumshoqligi (ζ)	0,20	0,20	0,17	0,18
Elektrofillik indeksi (ω)	2,99	2,40	2,99	3,55
Zaryad ko'chirib o'tishning maksimal indeksi (ΔN <sub>max</sub> )	1,1	0,99	1,01	1,15
Elektromanfiylik (χ)	5,42	4,82	5,87	6,17
Elektronga aylanishi (EA)	0,52	-0,014	0,11	0,81
Ionlashish energiyasi (I)	10,32	9,65	11,64	11,53


N–SXZ va N–O–SXZ (2,40 eV) hamda O–SXZ (2,40 eV) kuchli elektrofil hisoblanadi, O–N–O–SXZ (3,55 eV) esa juda kuchli elektrofil hisoblanadi, O–SXZ boshqa SXZ larga qaraganda ancha past kimyoviy bardoshlilikka ega, bu boshqa SXZ larga qaraganda O–SXZ ni reaksiyaga moyilligini bildiradi. 2-jadvalga muvofiq XZ molekulasiga kiritilayotgan har bir sulfat guruhlar electron energiyasini [E (RB3LYP)] 680 a.b ga pasaytiradi, SXZda sulfat guruhlarining sonini ortishi esa energiyani 333,946 dan 410,710 kkal/mol gacha chiziqli ortishiga olib keladi. Bitta sulfat sulfat guruhning kiritilishi issiqlik energiyasini o'rtacha 38 kkal/mol ga ortishiga sabab bo'ladi. Bir funksional guruh almashgan SXZ 334,538 kkal/mol, ikta funksional guruh almashgan SXZ 411,302 kkal/mol entalpiyaga ega. XZ molekulasida sulfat guruhlar sonining ortishi bilan entropiyasi ham ortishi kuzatildi.

**2-jadval.** 298,15 K va 1 atm da SXZ uchun hisoblangan issiqlik va electron energiya, entalpiya, entropiya, issiqlik sigimi va dipol momenti ( $\mu$ ).


Parametr	Qiymati			
	N–SXZ	O–SXZ	N–O–SXZ	O–N–O–SXZ
E (RB3LYP) (a.b.)	-1865,727	-2549,611	-3228,845	-3986,761
$\mu$ (debay)	18.705	22.338	13,685	14,456
E (issiqlik) (kkal/mol)	334.469	372.680	410,710	458,210
Entalpiya (kkal/mol)	337,583	381,152	412.307	461,402
Entropiya (kal/mol K)	192.222	235,534	252,266	275.395
Issiqlik sig'imi (kal/mol K)	119,507	142.753	162,982	172.651

XZ ni sulfomin kislotasi (SK) va xlor sulfon kislotasi (XSK) kabi sulfatlovchi agentlardan foydalanib turli usullar bilan sulfatlanadi. Kvant tahlili orqali bog'lanishlarning kimyoviy barqarorligi va reaksiyon qobiliyatlarining tadqiqotlari ko'rsatilgan. Modellashtirish XZ bilan XSK va SK bilan o'zaro ta'sirlashuvini ko'rsatadi. Chegaraviy molekulyar orbitallarning hisoblangan ma'lumotlarini tahlil qilish asosida XSK katta potensialga ega bo'lgan organik kislotalardan biri sifatida aniqlangan.


Ma'lumki askorbin kislotasi (AK) C-3 ( $pK_a = 4,2$ ) va C-2 ( $pK_a = 11,6$ ) da yenol gidroksillaridagi vodorod atomlarining harakatchanligi tufayli fermentative tizimlarda ham donor ham akseptor sifatida metabolizmida muhim rol o'ynaydi. Ushbu ishda xitozan askorbatining nanozarrachalarini hosil bo'lishida hamda adabiyotlardagi eksperimental natijalarni nazariy tasdiqi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan tushunchalar DFT usulidan foydalanib XZ bilan AK va TPF ning o'zaro ta'sirlashuvi o'rganildi.




YBMO XZ-AK



QEMO XZ-AK



YBMO XZ-TPF



QEMO XZ-TPF

**1-rasm.** XZ-TPF va XZ-AK ning YBMO va QEMO uchun molekulyar orbita sirtlari.

1-rasmda optimizatsiyalangan XZ-AK va XZ-TPF strukturalari ko'rsatilgan. XZ aminoguruhleri bilan AK va TPF atomlarining kislorod atomi orasidagi masofa donor-akseptor ta'sirlashuvi uchun o'rinli bo'lgan diapazonda 1,52–1,98 Å joylashgan. Bu shundan darak beradiki, mahsulot XZ monomeri zvenosi bilan AK va TPF ta'sirlashuvi donor-akseptor mexanizmi bilan ushlab turiladi. XZ bilan AK ( $r = 1,60 \text{ \AA}$ ,  $\theta = 171,10$ ) orasida o'zaro ta'sirlashuvi kuzatiladi, hamda XZ bilan TPF ( $r = 1,53 \text{ \AA}$ ,  $\theta = 178,70$ ).

XZ va AK, TPF o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kattaligini o'rganish maqsadida biz supermolekulyar yondashuv yordamida o'zaro ta'sir energiyasini baholadik. Dastlab biz o'zaro ta'sir energiyasini gazli fazada ( $\Delta E_{o'z.}$ ) keyin suvli fazani o'zaro ta'sir energiyasiga ta'sirini kuzatdik (3-jadval). Gazli fazada  $\Delta E_{o'z.}$  ni ko'tarilishi kuzatiladi va quyidagi tartibda bo'ladi: XZ-AK (-68,76 kkal/mol) > XZ-TPF (-64,58 kkal) donor-akseptor bog'lanish. Bu donor-akseptor bog'lanishning bog'lanish burchagi ikkita birikma orasidagi o'zaro ta'sir energiyasini aniqlaydigan yagona mezon emasligini ko'rsatadi. suvli fazaning kiritilishi gaz fazasiga nisbatan o'zaro ta'sir energiyalarining keskin pasayishiga olib keladi.  $\Delta E_{o'z.}$  si (NAXZ modeli bo'yicha) suvli fazada quyidagi tartibda joylashadi: XZ-AK (-13,67 kkal/mol) > XZ-TPF (-11,2 kkal/mol). Tanlab olingan XZ-AK va XZ-TPF solvatsiyasining erkin energiyasi ( $\Delta G_{sol}$ ) hisoblandi. Sinergetik effektda o'zaro ta'sirlashuv, XZ+nukleofil (AK,TPF)=NAXZ molekullararo donor-akseptor bog'lanishlariga NAXZ YBMOsi XZ yoki AK va TPF QEMOsi qaraganda pastroq energiyaga ega


bo'lganda mos keladi. Shundan kelib chiqib energiya bo'linishini  $\Delta E_{gaz, suv} = (E_{YBMO (gaz, suv)}, NAXZ - E_{YBMO (gaz, suv)})$ , nukleofil (AK, TPF)) hisobladik.

2-rasmda hisob-kitob ma'lumotlari va adabiyotlardagi ma'lumotlarga tayanib NAXZ modelini ko'rsatdik.

### 3-jadval.

O'rganilayotgan tizimlarning hisoblangan parametrlari (kkal/mol).


Tuzilishi	$\Delta E_{o'z}$ (BSSE)	$\Delta E_{o'z}$		$\Delta E_{o'z}$ (PCM modeli)	$\Delta G_{aralashma}$ (solvatatsiya modelidan foydalanib)	
XZ-AK	-68,76	-70,21		-13,67	-66,32	
XZ-TPF	-64,58	-66,32		-11,2	-62,45	
Tuzilishi	$\Delta E_{gaz}$	$\Delta E_{suv}$	$\Delta G_{gaz}$	$\Delta G_{suv}$	$\eta$ , gaz faza	$\eta$ , suv faza
XZ-AK	-72,42	-6,82	-40,34	-3,37	63,7	60,3
XZ-TPF	-51,49	-4,56	-41,35	-3,08	49,7	59,3




2-rasm. XZ-AK-TPF ta'sirlashuv mexanizmi.

NAXZ barqarorligini gaz va suvli fazalardagi umumiy energiya bilan kuzatish mumkin. Ikkala fazadagi umumiy energiyani solishtirish mumkin, ammo suvli fazadagi bir oz pastroq qiymatlar ularning suvli fazada kamroq barqaror ekanligini anglatadi. Ilk marta NAXZ modeli olingan. Hisoblash natijalari eksperimental tadqiqotlarda aniqlangan gaz fazasida xitozan va AK va TPF o'rtasida kuchli donor-akseptor o'zaro ta'siri mavjudligini aniqlaydi. Suvli fazaning kiritilishi o'zaro ta'sir energiyasining pasayishiga olib keldi.


Oqsillarning anion va kationik polisaxaridlar bilan o'zaro ta'sirining fizik-kimyoviy hodisalari va qonuniyatlari katta amaliy qiziqish uyg'otadi. Ishning ushbu qismida Bombyx mori oqsili va xitozan asosida PMK preparatlarini ishlab chiqarishni nazariy o'rganish natijalari keltirilgan. Zichlik funksional nazariyasi (DFT) usuliga asoslanib, Bombyx mori ipak qurti g'umbaklaridan ajratilgan oqsil tarkibiga kiruvchi xitozan va AMK (asparagin, treonin, serin, glutamin, alanin, tirozin, histidin va lizin) o'rtasida komplekslar hosil bo'lishi aniqlangan. Ko'rib chiqilayotgan komplekslarning optimallashtirilgan tuzilishi 4- rasmda keltirilgan.




XZ-Asparagin




XZ-Treonin




XZ-Serin




XZ-Glutamin




XZ-Alanin



XZ-Tirozin



XZ-Gistidin



XZ-Lizin

### 3-rasm. XZ bilan AMK ning optimizatsiyalangan geometriyasi

XZ ning amino- yoki -OH-guruhining H atomi va AMK guruhlarining O-COO- yoki -OH atomlari orasidagi masofa vodorod uchun xos bo'lgan 0,96-1,34 Å oralig'ida joylashgan. Bu xitozanning kompleks hosil bo'lishi jarayonida AMK bilan vodorod bog'larini hosil qilishini ko'rsatadi. XZ -Treonin va XZ -Gistidinning (0,96 Å) anomal ravishda qisqaroq masofani qayd etish muhimdir. 4- jadvaldan ko'rinib turibdiki, gistidinli kompleksdan tashqari (-11,45 kkal/mol),  $\Delta E_{o'z}$  ning hisoblangan qiymatlari barcha holatlarda salbiy bo'lib, bu -17,56 dan -129,46 kkal / mol oralig'ida komplekslarning shakllanishiga yordam beradi.

$\Delta E_{o'z}$  qiymati gaz fazasida 11,45 kkal/mol (XZ-lizin) dan -129,41 kkal/mol (C3-serin) va suvli fazada -11,03 kkal/mol (C3-lizin) dan -22,09 kkal/mol (XZ-asparagin) gacha o'zgarib turadi.  $\Delta E_{o'z}$  ning anomal darajadagi yuqori qiymatiga kelsak, bu vodorod migratsiyasiga olib keladigan katta kulon tortishish kuchi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'zaro ta'sir kuchi quyidagi tartibda bo'ladi: XZ-asparagin > XZ-alanin > XZ-glutamin > XZ-serin > XZ-tirozin > XZ-treonin > XZ-lizin > XZ-histidin.

4-jadval.

XZ ni AMK komplekslari bilan BSSE bo'yicha to'g'rilangan o'zaro ta'sirlashuv energiyasi va vodorod bog'lar orasidagi masofa.


Tizim	Vodorod bog'lar, (suvli faza), Å	$\Delta E_{o'z}$ , kkal/mol (gazli faza)	$\Delta E_{o'z}$ , kkal/kal (suvli faza)
XZ-Asparagin	1,07	-110,81	-22,09
XZ-Treonin	0,96	-127,60	-15,54
XZ-Serin	1,07	-129,41	-16,83
XZ-Glyutomin	1,09	-80,56	-16,95
XZ-Alanin	1,026	-42,62	-19,65
XZ-Triozin	1,047	-18,38	-16,07
XZ-Gistodin	0,96	-11,45	-11,03
XZ-Lizin	1,046	-17,56	-21,14

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, asparagin bilan kompleks (ikki funksional guruh qarama-qarshi zaryadlangan)  $\Delta E_{o'z}$  qiymatlarida boshqa komplekslarga nisbatan sezilarli pasayish bor. Masalan,  $\Delta E_{o'z}$  qiymati suvdagi XZ-Serin kompleksi uchun suvli fazada -16,83 kkal/mol bo'lib, gaz fazasidagi qiymat bilan taxminan 112,58 kkal/mol farqni ko'rsatadi. XZ-tirozin holatida bu farq taxminan 2,31 kkal / mol ni, o'zaro ta'sir energiya qiymatlari esa -18,38 (gaz fazasi) va -16,07 (suv fazasi) tashkil qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qarama-qarshi zaryadli monomerlar haqiqatan ham suvdagi komplekslarga qaraganda ko'proq ajratilgan va barqarorroqdir, bu esa  $\Delta E_{o'z}$  ning pasayishiga olib keladi. Hisoblash ma'lumotlariga ko'ra, eng kichik diapazon oralig'i  $\Delta E$  (8,34 eV) xitozin-gistidin kompleksi va 9,28 eV xitozin-tirozin uchun kuzatiladi. Xitozin-tirozin va xitozin-gistidin komplekslarining elektron tuzilishiga ko'ra, gistidinning kimyoviy tuzilishining ta'siri, qo'sh bog'lar va ikkita azot atomi mavjud bo'lgan besh a'zoli halqaning mavjudligi va tirozin uchun olti- a'zoli halqa elektron strukturani sezilarli darajada o'zgartiradi.

Polisaxaridlar asosida bionanokompozitlar va metal nanozarrachalari multirezistent bakteriyalarga qarshi xususiyatlarga ega. Tadqiqotning birinchi qismida kumush (Ag) nanozarrachakari bilan XZning ta'sirlashuvi modellashtirish bajarildi. 6-(a,b)rasmda mos ravishda XZ va XZ-Ag ning suvli va gazli fazada optimizatsiyalangan geometriyasi keltirilgan. XZ turli xil ichkimolekulyar vodorod bog'lar bilan barqarorlangan, ya'ni O-H---O-H, O-H—halqasi va N-H-O-H. Vodorod bog'lar 2,285 Å dan 2,976 Å gacha tebranadi bitta uzaytirilgan bog'dan (2,976 Å) tashqari.

Keyinchalik, bimetalik nanozarralarni modellashtirish amalga oshirildi. Bimetalik  $Cu_3Ag_m$  klaster tuzilmalari 3 dan 20 gacha Ag atomlari qo'shilgan va asl yadro-qobiq strukturasi hosil qilgan o'zgarimas tarkibiga ega bo'lgan  $Cu_3$  bilan generatsiyalangan.  $Cu_3Ag_{10}$ ,  $Cu_3Ag_{16}$  va  $Cu_3Ag_{20}$  kompozitsiyalari maksimal barqarorlikni ko'rsatdi va eng barqaror monometalik klasterlar esa Ag ( $Ag_{13}$ ,  $Ag_{19}$  va  $Ag_{20}$ ) dir. Boshqa tomondan, monometalik Ag klasterlari, shuningdek, ularning nanozarralari juda barqaror tuzilmalar hisoblanadi, shuning uchun Ag atomlari ham bimetalik klasterlarning barqarorligini aniqlashi kutiladi. Tizimga qo'shilgan, manfiy bo'lib qolgan Ag soniga qarab, klasterlarning aralashish energiyasi orqali

bu effektni izohlash mumkin (4-rasm). Monometall Cu klasterlarining bog'lanish energiyasi monometalik Ag klasterlariga qaraganda yuqori bo'lib, bu bog'lanishlarning birinchi navbatda hosil bo'lishi va Ag-Cu bog'lari hosil bo'lgandan keyin saqlanib qolishi bilan izohlanadi.




**4-rasm.**  $\text{Cu}_3\text{Ag}_m$  klasterining aralashish energiyasi

$\text{Cu}_3\text{Ag}_{11}$  klasteri  $\text{Cu}_3\text{Ag}_{10}$  tuzilishiga juda o'xshash kuboktaedr tuzilishga ega, ammo ikkinchisi kuboktaedrga qaraganda ikosaedrga yaqinroq geometriyaga ega. Shu sababli, bu klaster eng barqarorlardan biridir, chunki ikosaedral tuzilishda struktura bilan bog'liq sterik effektlar kichikdir. Eng barqaror klasterlar ( $\text{Cu}_3\text{Ag}_{10}$ ,  $\text{Cu}_3\text{Ag}_{15}$  va  $\text{Cu}_3\text{Ag}_{20}$ ) o'zlarini sof Ag kabi tutishga moyil. Deatsetillanish darajasi (DAD) va molekulyar og'irlik PEni tanlash uchun hal qiluvchi parametrdir. Kislotali pH XZ pKa dan past (6,4 dan past) bo'lgan muhitda kationik polielektrolit bo'lib, inson tanasi va atrof-muhit uchun toksik bo'lmagan, biologik mos va bioparchalanuvchidir. Ishning ushbu qismida biz xitozan tarkibidagi atsetamid va aminokislotalarning reaksiya qobiliyatini, xitozanning Na-KMS bilan o'zaro ta'sirini va ularning interpolimer komplekslarining barqarorligi o'rgandik.

Turli miqdorda asetamid va aminokislotalarni o'z ichiga olgan xitozan zanjirlarining KMS zanjiri bilan o'zaro ta'sirini o'rganish uchun hisob-kitoblar o'tkazildi. Hisoblashlar natijasi shuni ko'rsatdiki (5-rasm), XZ zanjirida atsetamid sonini ortishi bilan KMS bilan XZ o'rtasida sezilarli ta'sirlashuv ro'y bermaydi ya'ni neytral sharoitlarda polielektrolit komplekslar hosil bo'lmaydi. Hisoblashlar tuzilishida faqat protonlangan aminoguruh zanjirlaridan tashkil topgan XZ kompleksi uchun eng kam ta'sirlashuv energiyasi qiymati 8,9077 kJ/mol ekanligini ko'rsatdi. Kislotaning oshishi va xitozan zanjirida musbat zaryadlangan aminoguruhlar sonining ortishi PEKning hosil bo'lishi bilan o'zaro ta'sirlashuv sodir bo'ldi.


Molekulyar-dinamik modellashtirish yordamida aniqlangan polielektrolit kompleksi hosil bo'lish mexanizmi eksperimental ma'lumotlar bilan mos keladi ya'ni XZ-KMS KMS ning zaryadlangan  $-\text{NH}_3^+$  va  $-\text{COO}^-$  guruhlarning elektrostatik o'zaro ta'sirlashuvi hisobga hosil bo'ladi. Bu jarayonga pH-aralashma va xitozanning deatsetillanish darajasi ham ta'sir qiladi.



**5-rasm. Na-KMS ning 10 ta zvenosidan iborat faqat protonlangan aminoguruhlardan tashkil topgan 10 ta zvenoli xitozan zanjirining o‘zaro ta’sirlashuvi. O‘zaro ta’sir energiyasi = -2129 kkal/mol / -8,907736 kJ/mol.**

